

**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI ICHKI KECHINMALARNI
IFODALOVCHI LINGVO-KULTUROLOGIK XUSUSIYATLAR TATBIQI**

*Ilmiy rahbar:p.f.n dotsent: **Abdullayeva Dildora Abdinabiyevna***

Aktamova Munisa Shaxobiddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarix va filologiya” fakulteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: aktamovamunisa6@gmail.com

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining milliy ma‘daniy xususiyatlar va badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi yoritilgan. Shuningdek, milliy urf-odatlarining, an‘analarimizning hamda badiiy tasvir vositalarining ingliz tilida ham o‘zining tuzilishi va ma‘nosini saqlab qolganligi va qanday farqlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘tgan kunlar, milliylik, realiya, badiiy tasvir, adib ijodining tahlili, tafovut, madaniy til birliklar.

Применение лингвокультурных особенностей, отражающих внутренние переживания, в романе «O‘tkan kunlar».

*Научный руководитель: п.ф.н доцент: **Абдуллаева Дилдора Абдинабиевна***

Актамова Муниса Шахабиддиновна

Ташкентский университет прикладных наук

Факультет “Истории и филологии”

Студентка 2-курса “Узбекский язык и литература”

E-mail: aktamovamunisa6@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается использование национальных культурных особенностей и средств художественного образа в романе Абдуллы Кадири «O‘tkan kunlar». Думается также о том, как наши национальные обычаи, традиции и художественные средства сохранили свою структуру и значение в английском языке и чем они отличаются.

Ключевые слова: Прошлое, национальность, реальность, художественный образ, анализ литературных произведений, отличие, культурно-языковые единицы.

The application of linguistic-cultural features representing inner experiences in the novel "O'tkan kunlar".

Scientific supervisor: *p.f.n associate professor: Abdullayeva Dildora Abdinabiyevna*

Aktamova Munisa Shakhbiddinovna

Tashkent University of Applied Sciences

Fakulty of "History and Philology"

2nd stage student of "Uzbek language and literature"

E-mail: aktamovamunisa6@gmail.com

ABSTRACT

This article describes the use of national cultural characteristics and artistic image tools in Abdulla Qadiri's novel "O'tkan kunlar". It is also thought about how our national customs, traditions, and artistic means have preserved their structure and meaning in the English language and how they differ.

Key words: Past days, nationality, reality, artistic image, analysis of literary works, difference, cultural linguistic units.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardan iboratdir. Ma'naviy faoliyatga kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazzandachilik, ismlar va boshqalardir. Badiiy asarlarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milliy kalorit deb ataladi. "Milliy xos so'zlarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi."¹

O'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan va uning rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk yozuvchilarimiz yetarli. Ularning hayot tarzi va boy adabiy merosining yaratilishi bugungi davr odamlarini tarix haqida o'ylashga majbur qiladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ham tarixiy roman hisoblanib, o'zbek tilida yozilgan birinchi roman bo'lib, joriy yilda uning dastlabki boblari yozila boshlanganligiga 100 yil to'ladi. Asarda Otabek va Kumush muhabbati XIX asr o'rtalarida mamlakatimizda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar fonida ko'rsatib berilgan. Ayni paytga qadar asar rus, nemis, turk, tojik, qozoq, turkman va boshqa

¹ Hamroyev H. Milliy xos so'zlar-realiyalar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami).-Toshkent, 1982.

ko'pgina tillarga tarjima qilingan. Bir necha yillardan beri asarning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi bilan I.To'xtasinov va uning jamoasi shug'ullanib kelmoqda. Asarning rus tilidan tarjimasi angliyalik tarjimon va adabiyotshunos Kerol Ermakova tomonidan ingliz tiliga o'girilgan. Bundan tashqari asarning keyingi tarjimasi amerikalik olim, AQSH harbiy-dengiz akademiyasi Mintaqaviy tadqiqotlar markazining sobiq direktori Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan. U 1994-1996 yillari Tichlik korpusining O'zbekistondagi birinchi ko'ngillilaridan bo'lgan. M.Riz mamlakatimizda ko'p vaqtini Farg'onada o'tkazgan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, vodiya tashrif buyurgan birinchi amerikaliklardan hisoblanadi. M.Riz AQSH Mudofaa vazirligi va Davlat departamentida xizmat qilgan, Afg'onistonga tarjimon sifatida yuborilgan, Davlat departamentining qiyosiy diniy tadqiqotlar dasturiga rahbarlik qilgan, shuningdek, AQSH hukumat dasturlariga Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassis sifatida jalb etilgan. Olim uchun romanni tarjima qilish o'n besh yildan ko'proq vaqt davom etdi.

A.Qodiriyning romantik uslubi milliy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarida chuqur ildiz otgan. Shuning uchun endi O'zbekiston rassomlarining uslubiy izlanishlari muhim ijodiy faoliyat yo'nalishini namoyish etayotganligi sababli, A.Qodiriyning uslubiy tajribasi ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Zero, adibning romanlari adabiy va ajoyib sifat bilan o'sha davrning boshqa ko'plab prozaik asarlaridan farq qiladi. "O'tkan kunlar" (1922) va "Mehrobdan chayon" (1929) romanlari o'zbek adabiyotining, xususan, 20-yillarning o'zbek nasrining ijodiy yuqori qismini belgilaydi. Shuning uchun A. Qodiriyning ijodiy tajribasi yosh yozuvchilar uchun doimiy ahamiyatga ega. Ushbu yozuvchining asarlari nafaqat uning yozma qo'lyozmasining o'ziga xos individualligini ochib beradi, balki ma'lum bir darajada keyingi o'n yilliklar adabiyoti uslubi xilma-xilligi rivojlanishiga katta xissa qo'shadi.²

Abdulla Qodiriy asrlarining ulug'vor va go'zal bo'lishida badiiy tasvir vositalarining ham o'rni beqiyos. Adibning romanlarida tasvirlangan asosiy qahramonlari hayotiyli, tabiiyligi bilan, qalbning ko'z ilg'amas darajada tovlanib turishi, favqulodda kuchli jozibasi, sir-asrorlarga boy poetikligi bilan kishini maftun etadi.

Asarni tarjima qilish davomida tarjimonlarimiz muallif uslubini qayta yaratishga, asar ritmi va intonatsiyasini saqlash, personajlar nutqini asliyatdagi tabiiyligi bilan aks ettirishga, milliy koloritni berish, frazeologizmlarning muqobil variantini topishga, sheva xususiyatlarini ifodalash kabilarga e'tibor qaratganlar. Tarjimonlarimiz o'zbek tilini bilish bilan bir qatorda, xalqimizning ijtimoiy o'zini- o'zi anglashi, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlarini, axloqi, qadriyatlarini yig'indisi va dunyoqarashi haqida chuqur bilimga ega ekanliklarini ham isbotlaganlar.³

² Ashurov B.Sh, Sayidqulova N.D Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy ma'daniy xususiyatlarning aks ettirilishi. N:-2022.

³ Hamroyev H. Milliy xos so'zlar-realiyalar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami).-Toshkent, 1982.

Shuni ta'kidlash joizki, tarixiy asarlarda ijtimoiy-tarixiy harakatdagi xalq hayotining ma'lum bir davri ifodalanadi. Bunday asarda qo'llanilgan til vositalarining katta qismi vaqt o'tishi bilan turli o'zlashtirishlarga uchragan, bir qator so'zlar eskirib, iste'moldan chiqib, unitilib ketgan, bir guruh so'zlarning ma'no ko'lami kengaygan, yana boshqalarning esa aksincha chegaralanib, toraygan. Bir so'z bilan aytganda, asar yaratilgan davr tilida qanday qo'llanishda bo'lgan bo'lsa, shunday saqlanib qolgan til vositalarini topish mushkul. Tilda doimiy, turg'un hamda vaqtinchalik, o'tkinchi, o'zgaruvchan til hodisalari ham borki, tarjimon bu o'rinda tarjimasiga kirishgan asar yaratilgan o'tmishni chuqurroq o'rganishi, asar muallifining uslubini, dunyoqarashini bilishi, uning o'zi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, tarixiy asarning shu davrga qadar boshqa tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan barcha tarjimalarini ham yaxshilab o'rganib chiqishi, ushbu yo'nalishdagi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi kerak. Bu kabi omillar tarixiy asarlar mazmunini chuqurroq anglashga, tarjima jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan mushkullikning yechimini topishda va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldini olishda yordam beradi. Tarixiy asarlar tarjimasida mutarjimlar barcha til vositalarini zamonaviy til orqali o'gira olmasligiga sabab asliyatning qadimiyligi bo'lsa, qadimiy til bilan o'rganishni inkor etuvchi sabab, uning zamonga xizmat qilishi zarurligidadir. Tarixiy asar tarjimasini ikki davrga taaluqlidir. Ya'ni, u zamonaviy tilda yaratilishi hamda o'zida tarixiy davr ruhini aks ettirishi kerak. Har bir asar o'z zamon va makoniga ega. Tarjimada ana shu zamon va makonning asliyatda qoldirilgan izini o'zga kitobxonga yetkazish, tarjimonga katta mas'uliyat yuklaydi. Tarjimon zamondoshimiz, demak, bugungi kun o'quvchisi. U nafaqat o'quvchi, balki asl nusxaning badiiy tomonlarini tahlil qila oladigan tanqidchi hamda asarni o'z tilida qayta tiklay oladigan olim va yozuvchi hamdir.⁴

Quyida keltirilgan parchani tahlil qiladigan bo'lsak, asliyat:

"Mirzaboshi kirib xong'a qulliq qildi va Musulmonqulg'a qarab qo'l bog'ladi. Musulmonqul yana xumori bo'lg'an edi so'ngra mirzaboshig'a dedi: "Chilim!" deb tashqarig'a qichqirdi,

-Hozir Marg'ilon hokimi O'tabboq qushbegiga bir xat yozib, chopar bilan yubor. Xatni olg'an zamon Yusufbek hojining o'g'li Otabek deganni olib huzurimizga kelsin!"

O'zbek tilidan rus tiliga tarjimasini:

Вошел мирза-баши, поклонился почтительно хану, а затем Мусульманкулу. Тот все еще был крайне раздражен и испытывая физическую потребность покурить, приказал "Чилим!", затем обратился к мирза-баши:

⁴ Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Translators: I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov. Toshkent: "Mashhur - press", 2017.

-Немедленно напиши правителю Маргилана Утаббаю-кушбеги чтобы он явился сюда вместе с сыном Юсуфбека-хаджи Атабеком. Письмо отошли с гонцом.

Rus tilidan ingliz tiliga K.Ermakova tarjimasini:

"Mirza-bashi entered, bowed respectfully to the khan, and then to Musulman Kul.

But the ruler was still extremely agitated and once again felt compelled to smoke.

Tarjimada milliy o'ziga xoslikni aks ettirishda u yoki bu xalq vakiliga xos psixologik xarakterlar, odat, qiyofa, muomala normalari, xulq-atvor va marosimlarini bera bilish ham katta ahamiyatga ega. Chunki, har bir millat kishisining bunday xususiyatlarini tasvirlash badiiy asarga milliy tus beradi. Bir millatning yaratgan boyligidan boshqa millatning bahramand bo'lishi xalqlarning tinchliksevarlik maqsadlariga juda mos tushadi. Tarjima ham xuddi ana shu maqsadga xizmat qilishi kerak. Tarjima til to'siqlarini bartaraf etadi, uzoqni yaqinlashtiradi, xalqlarni bir-biriga oshno, birodar qiladi. O'zbek va xorij xalqlari adabiy aloqalarining kengayishi bundan keyin bu ikki adabiyot bisotidan mukammal badiiy tarjimalar yaratilishini taqozo etadi.⁵

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining boy meroslaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani to'la ma'noda O'zbek xalqining milliy urf-odatlarini ifodalabgina qolmay, o'sha davrda xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklarni tasvirlagan. Tarjima bugungi kunda mustaqil respublikamizda har qachongidan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunga sabab O'zbekistonning tashqi dunyo bilan bo'lgan keng diplomatik, iqtisodiy, madaniy va ilmiy munosabatlarining rivojlanib borayotganligidir. O'zbeklar turmushini, tarixini, tilini, milliy urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o'z asarlarida juda unumli va o'rinli foydalangan hamda ularning yillar davomida saqlanib qolinishiga ulkan hissa qo'shgan. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o'zbek adabiy tilining go'zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o'z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba'zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o'zbek adabiy tilining takomillashuviga ulkan hissa qo'shgan. Adib bu benazir adabiy-ilmiy xizmatlari bilan o'zbek olimlari bilan birga xorijlik mutaxassislarning ham e'tiborini qozongan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov B.Sh, Sayidqulova N.D Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy ma'daniy xususiyatlarning aks ettirilishi. N:-2022.
2. Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Translators:I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidov. Toshkent:"Mashhur -press", 2017.
3. Hamroyev H. Milliy xos so'zlar-realiyalar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami).-Toshkent, 1982.

⁵ <http://www.google.com.qodiriy.html/>.

4. Hamroyev H. Milliy xos soʻzlar-realiyalar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati(maqolalar toʻplami).-Toshkent, 1982.
5. <http://www.google.com.qodiriy.html/>.

